


SAMARQAND VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2021- yil yanvar-mart oylari uchun dastlabki ma'lumot)

Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yil yanvar-mart oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 376,2 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 30,6 mln. AQSh dollariga yoki 8,9 %ga ko'paydi.

TASHQI SAVDO
AYLANMASI
VA BALANSI
(yanvar-mart
mln. AQSh
dollari)



Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



SAMARQAND
VILOYATI BILAN
TASHQI SAVDO
AYLANMASI
ENG YUQORI
ULUSHGA EGA
BO'LGAN
DAVLATLAR
(2021 - yil
yanvar-mart,
mln. AQSh
dollari, ulushi,
%da)

TSA da eksport hajmi 100,3 mln. AQSh dollariga (12,9 %ga ko'paydi) va import hajmi 275,9 mln. AQSh dollariga (7,5 %ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida -175,6 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Rossiya Federatsiyasi	61,9	23,1	38,7	16,4
Xitoy Xalq Respublikasi	61,2	12,4	48,9	16,3
Qozog'iston	38,2	7,5	30,7	10,2
Turkiya	35,1	10,2	24,9	9,3
Yaponiya	15,9	0,0	15,9	4,2
Ukraina	13,7	2,0	11,7	3,6
Tojikiston	13,2	12,1	1,1	3,5
Sloveniya	9,7	0,0	9,7	2,6
Vengrya	8,5	0,0	8,4	2,2
Hindiston	8,2	0,0	8,2	2,2

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

Samarqand, jahonning 73 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (16,4 %), Xitoy Xalq Respublikasida (16,3 %), Qozog'istonda (10,2 %), Turkiyada (9,3%), Yaponiyada (4,2 %), Ukrainada (3,6 %) va Tojikistonda (3,5 %) qayd etilgan.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Tojikiston va Qirg'iz Respublikalari bilan TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Tojikiston, Qirg'iz Respublikasi va Turkmaniston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Xitoy, Rossiya, Turkiya va Yaponiya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 30 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan 5 ta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Tojikiston (13,2 mln. AQSh dollari), Qirg'iz Respublikasi (7,3 mln. AQSh dollari), Afg'oniston (6,8 mln. AQSh dollari), Ozarbayjon (5,3 mln. AQSh dollari), Belarus Respublikasi (3,1 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 25 ta yirik hamkor-davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

SAMARQAND
VILOYATINING
YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR BILAN
TASHQI SAVDO
AYLANMASI
DINAMIKASI
(yanvar-mart,
mln. AQSh
dollari)

Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Rossiya Federatsiyasi	65,5	60,0	61,9
Eksport	23,5	19,7	23,1
Import	42,0	40,3	38,8
Saldo	-18,5	-20,6	-15,7
Xitoy Xalq Respublikasi	68,5	62,6	61,2
Eksport	5,0	5,5	12,4
Import	63,5	57,1	48,8
Saldo	-58,5	-51,6	-36,4
Qozog'iston	46,1	38,7	38,2
Eksport	11,8	14,4	7,5
Import	34,3	24,3	30,7
Saldo	-22,5	-9,9	-23,2
Turkiya	43,5	29,1	35,1
Eksport	7,8	8,7	10,2
Import	35,7	20,4	24,9
Saldo	-27,9	-11,7	-14,8
Yaponiya	17,1	19,8	15,9
Eksport	0,5	0,1	0,01
Import	16,6	19,7	15,9
Saldo	-16,1	-19,6	-15,8
Ukraina	6,9	7,8	13,7
Eksport	2,4	2,0	2,0
Import	4,5	5,8	11,7
Saldo	-2,1	-3,8	-9,7
Tojikiston	3,5	8,4	13,2
Eksport	2,9	8,0	12,1
Import	0,6	0,4	1,1
Saldo	2,3	7,6	11,0




SAMARQAND
VILOYATINING
YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR
BILAN TASHQI
SAVDO
AYLANMASI
DINAMIKASI
(yanvar-mart,
mln. AQSh
dollari)

Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Sloveniya	5,6	8,6	9,7
Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	5,6	8,6	9,7
Saldo	-5,6	-8,6	-9,7
Vengrya	2,1	7,3	8,5
Eksport	0,2	0,1	0,03
Import	1,9	7,2	8,4
Saldo	-1,7	-7,1	-8,4
Hindiston	8,1	5,2	8,2
Eksport	0,0	0,2	0,0
Import	8,1	5,0	8,2
Saldo	-8,1	-4,8	-8,2
Qirg'iz Respublikasi	2,2	6,8	7,3
Eksport	2,0	5,8	7,0
Import	0,2	1,0	0,3
Saldo	1,8	4,8	6,7
Afg'oniston	3,7	2,9	6,8
Eksport	3,7	2,8	6,8
Import	0,0	0,1	0,0
Saldo	3,7	2,7	6,8
Latviya	17,9	9,0	6,5
Eksport	0,6	0,4	0,2
Import	17,3	8,6	6,3
Saldo	-17,3	-8,2	-6,1
Eron	8,5	7,5	6,4
Eksport	2,9	1,0	1,1
Import	5,6	6,5	5,3
Saldo	-2,7	-5,6	-4,2



SAMARQAND VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-mart, mln. AQSh dollari, ulushi, %da)

Mamlakatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2021- yil yanvar-mart oylarida, viloyat tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 39,8 %ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2020- yilning yanvar-martiga nisbatan ulushi 1,2 %ga oshgan.



Aksincha boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasi esa 2021- yil yanvar-mart oylarida 2020- yilning shu davriga nisbatan 1,2 %ga kamaydi va jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 60,2 %ni tashkil etdi.



SAMARQAND
VILOYATI
SHAXAR VA
TUMANLARNING
TASHQI SAVDO
AYLANMASI
(2021- yil
yanvar-mart,
mln. AQSH
dollari,
ulushi, %da)


Shahar va tumanlar	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi ulushi, %da
Jami	376,2	100,3	275,9	100,0
Samarqand sh.	179,5	30,4	149,1	47,7
Kattaqo'rg'on sh.	6,7	2,7	4,0	1,8
<i>Tumanlar:</i>				
Bulung'ur	4,0	3,0	1,0	1,1
Jomboy	29,5	7,4	22,1	7,8
Ishtixon	2,0	0,5	1,5	0,5
Kattaqo'rg'on	7,6	5,3	2,3	2,0
Narpay	5,2	4,3	0,9	1,4
Nurobod	10,2	0,03	10,2	2,7
Oqdaryo	9,2	4,8	4,4	2,5
Payariq	4,5	3,1	1,4	1,2
Pastdarg'om	8,6	3,6	5,0	2,3
Paxtachi	4,1	1,4	2,7	1,1
Samarqand	39,2	14,3	24,9	10,4
Toyloq	25,8	3,0	22,8	6,9
Urgut	37,5	15,0	22,5	10,0
Qo'shrabot	0,8	0,2	0,6	0,2

Viloyat tashqi savdo aylanmasining eng yuqori o'rinlarida Samarqand shahri (179,5 mln. AQSH dollari), hamda Samarqand tumani (39,2 mln. AQSH dollari), shuningdek, Urgut (37,5 mln. AQSH dollari), Jomboy (29,5 mln. AQSH dollari) va Toyloq (25,8 mln. AQSH dollari) tumanlarini ko'rishimiz mumkin.

SAMARQAND VILOYATINING EKSPORTI (2021- yil yanvar-mart)

Joriy yilning yanvar-mart oylarida viloyatning eksportyorlari soni 324 tani tashkil etib, ular tomonidan 100,3 mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2020- yilning mos davriga nisbatan 12,9 %ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 98,4 %ni tashkil etib, ular asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (37,7 %), material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (28,2%), turli xil tayyor buyumlar (10,8 %), Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari (8,6 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



XSST
BO'YICHA
EKSPORT
TARKIBI
(2021-yil
yanvar-mart,
ulushi, %da)

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar – 37,7 %

Ichimliklar va tamaki – 1,0 %

Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari – 8,6 %

Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar – 0,2 %

Hayvon va o'simlik moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar – 0,0 %

Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar – 2,9 %

Sanoat tovarlari – 28,2 %

Mashinalar va transport asbob-uskunalar – 9,0 %

Turli xil tayyor buyumlar – 10,8 %

Xizmatlar – 1,6 %

**MDH
VA BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLARGA
EKSPORT TARKIBI
(2021- yil
yanvar-mart)**

XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	
Jami eksport	100,3	60,2	40,1	100	100	100
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	37,9	25,8	12,0	37,7	42,9	30,0
Ichimliklar va tamaki	1,0	0,9	0,0	1,0	1,6	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	8,6	4,8	3,8	8,6	8,0	9,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,2	0,1	0,1	0,2	0,1	0,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	2,9	0,8	2,1	2,9	1,4	5,3
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	28,3	12,5	15,8	28,2	20,7	39,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	9,1	4,1	5,0	9,0	6,8	12,5
Turli xil tayyor buyumlar	10,8	9,9	0,9	10,8	16,5	2,2
Xizmatlar	1,6	1,2	0,3	1,6	2,0	0,8

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar hissasiga to'g'ri kelmoqda, keyingi o'rinlarda eksport hajmi bo'yicha asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlar xissasiga to'g'ri kelmoqda.

**MDH
VA BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLARGA
TOVAR
VA XIZMATLAR
EKSPORTINING
O'SISH
SUR'ATLARI
(2021 - yil
yanvar-mart)**

XSST tarkibi	2020- yilning yanvar-martiga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	112,9	103,8	130,1
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	99,3	113,3	78,4
Ichimliklar va tamaki	2,3 m .	2,3 m.	163,4
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	198,2	2,5 m.	159,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	-	-	-
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	2,0	1,0	6,4
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	5,1 m.	144,2	65 863,1
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	176,4	161,8	189,9
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	69,9	38,0	225,4
Turli xil tayyor buyumlar	91,7	94,0	71,9
Xizmatlar	43,1	49,0	29,8

2021- yil yanvar-mart oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2020- yilning yanvar-martiga nisbatan, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlarda, o'sish kuzatildi.

**EKSPORT TARKIBI
DINAMIKASI
(yanvar-mart,
%da)**

XSST tarkibi	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	56,6	42,9	37,7
Ichimliklar va tamaki	0,8	0,5	1,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	5,7	4,9	8,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,7	0,0	0,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	1,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,6	0,6	2,9
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	10,9	18,1	28,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	8,4	14,6	9,1
Turli xil tayyor buyumlar	8,9	13,3	10,8
Xizmatlar	6,5	4,1	1,6


XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021 - yil yanvar-mart)	XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2020- yilning mos davriga nisbatan, % da
	Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
	Sabzavotlar va mevalar	27,9	90,5
	Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	7,2	181,9
	Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	1,3	127,6
	Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	0,7	128,8
	Tirik hayvonlar, 03 bo'limga kiritilgan hayvonlardan Tashqari	0,6	96,1
	Ichimliklar va tamaki		
	Ichimliklar	1,0	2,3 m.
	Tamaki va tamaki mahsulotlari	0,0	0,0
	Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
	To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	5,9	181,3
	Moy olinadigan urug'lar va mevalar	2,4	2,8 m.
	Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	0,2	186,5
	Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
	O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	0,02	2,0
	Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
	Birlamchi shakldagi plastmassalar	1,9	56,1 m.
	Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	0,6	3 m.
	Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	0,2	2,1 m.
Bo'yoqlar va bo'yovchi moddalar	0,1	149,2	

**XSST BO'LIMI
BO'YICHA
AYRIM
MAHSULOTLAR
EKSPORTI
TARKIBI
(2021- yil
yanvar-mart)**

Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	23,9	171,4
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	1,9	2,6 m.
Metallardan tayyorlangan buyumlar	1,3	127,6
Po'lat va metal	0,6	48,2 m.
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomobillar	8,0	67,9
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	0,4	142,4
Aniq sohalari uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar Metallarni qayta ishlash mashinalari	0,4	2,1 m.
Energiya generatori mashinalari va asbob uskunalar	0,1	20,7
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	0,1	78,0
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	7,8	84,3
Poyabzal	3,0	155,0
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	0,1	62,8
Xizmatlar		
Transport xizmatlari	0,9	34,5
Turistik xizmatlar	0,1	16,1
Moliyaviy xizmatlari	0,5	134,4

O'tgan yilga nisbatan MDH mamlakatlariga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2020- yil yanvar-martdagi 65,3 %dan 2021- yil yanvar-martda 60,1 %ga tushdi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 39,9 %ni tashkil etdi.

**MDH
VA BOSHQA
DAVLATLARGA
TOVAR
VA XIZMATLAR
EKSPORTI
HAJMLARI
DINAMIKASI
(yanvar-mart,
mln. AQSh
dollari,
ulushi, %da)**



2021- yilning yanvar-mart oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 23,0 %), Xitoy Xalq Respublikasi (12,3 %), Tojikiston (12,1 %), Turkiya (10,1 %), Qozo g'iston (7,5 %), Qirg'iz Respublikasi (6,9 %) va Afg'oniston (6,8 %) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi 78,8 foizni tashkil etmoqda.

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlardan Rossiya Federatsiyasi eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadam bo'lib kelmoqda.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2020- yilning mos davriga nisbatan 52 ta davlatdan 51 ta davlatga kamaygan.



VILOYAT
EKSPORTIDA
ASOSIY
HAMKOR
DAVLATLAR-
NING ULUSHI
(2021 - yil
yanvar-mart,
%da)



Davlatlar	Mln.AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, %da		O'rni	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Rossiya Federatsiyasi	19,7	23,1	83,6	117,3	1	1
Xitoy Xalq Respublikasi	5,5	12,4	109,6	2,2 m.	6	2
Tojikiston	8,0	12,1	2,7 m.	152,1	4	3
Turkiya	8,7	10,2	111,7	116,9	3	4
Qozog'iston	14,4	7,5	121,8	52,3	2	5
Qirg'iz Respublikasi	5,7	7,0	2,9 m.	121,0	5	6
Afg'oniston	2,8	6,8	76,2	2,4 m.	9	7
Ozarbajjon	3,5	5,1	120,8	143,8	7	8
Belarus Respublikasi	2,8	2,1	133,9	73,0	8	9
Ukraina	2,0	2,0	84,8	98,1	12	10
BAA	1,1	1,3	123,3	123,9	14	11
Singapur	1,1	1,2	4,3 m.	116,3	15	12
Eron	1,0	1,1	33,7	116,1	17	13
Turkmaniston	1,7	1,1	91,3	65,7	13	14
Iroq	2,2	0,9	149,2	40,6	10	15
Polsha	0,7	0,9	42,9	128,5	19	16
AQSH	1,0	0,8	94,9	85,2	16	17
Gruziya	0,9	0,7	85,0	78,4	18	18
Vetnam	0,4	0,6	-	168,1	22	19
Saudiya Arabistoni	0,2	0,6	2,6 m.	2,7 m.	26	20

SAMARQAND
VILOYATINING
ASOSIY
HAMKOR
DAVLATLARGA
AMALGA
OSHIRGAN
EKSPORTI HAJMI
VA O'SISH
SUR`ATLARI
(yanvar-mart)

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlar kiradi.

XSST tarkibi	Rossiya Federatsiyasi		Xitoy Xalq Respublikasi		Tojikiston		Turkiya	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Jami eksport	19,7	23,1	5,5	12,4	8,0	12,1	8,7	10,2
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	6,4	11,9	3,1	3,3	5,4	8,6	3,2	2,5
Ichimliklar va tamaki	0,3	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	0,9	2,5	1,2	1,1	0,0	0,0	0,1	1,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,6	0,0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,2	0,4	0,0	1,9
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	1,8	1,9	1,2	8,0	0,9	1,9	3,3	4,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	0,0	0,0	0,0	0,0	0,5	0,7	1,6	0,0
Turli xil tayyor buyumlar	7,8	5,6	0,0	0,0	0,4	0,5	0,2	0,1
Xizmatlar	2,5	1,1	0,0	0,0	0,0	0,0	0,4	0,0

**VILOYATNING
AYRIM
DAVLATLAR
BILAN EKSPORT
TARKIBI
(2021- yil
yanvar-mart,
mln. AQSh
dollarida)**

MEVA-
SABZAVOT
MAHSULOT-
LARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 23,9 mln. AQSh dollar qiymatli 26,2 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2020- yilning mos davriga nisbatan 5,5 mln. AQSh dollariga pastlashish kuzatilib, 18,7 %ga kamaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 7,3 mln. AQSh dollariga teng 10,8 ming tonna sabzavot, shuningdek 6,4 mln. AQSh dollari qiymatidagi 5,7 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 23,8 %ni tashkil etdi.

MEVA-
SABZAVOT
MAHSULOT-
LARI EKSPORTI
(2021- yil
yanvar-mart,
mln. AQSh
dollari)



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi (26,1 %), Xitoy xalq Respublikasi (13,9 %), Turkiya (10,3 %) va Ozarbayjon (9,4 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Davlatlar	2020- yil			2021- yil		
	ming tonna	mln. AQSh dollari	ulushi*, % da	ming tonna	mln. AQSh dollari	ulushi*, % da
Rossiya Federatsiyasi	5,6	5,3	18,1	6,5	6,2	26,1
Xitoy Xalq Respublikasi	3,5	3,1	10,7	4,6	3,3	13,9
Turkiya	2,0	2,6	8,9	2,4	2,5	10,3
Ozarbajjon	1,1	1,3	4,5	2,2	2,2	9,4
Belarus Respublikasi	2,2	2,7	9,1	1,4	1,6	6,5
Ukraina	1,7	1,6	5,4	2,0	1,4	5,9
Eron	1,0	0,7	2,5	1,0	0,9	3,6
BAA	0,5	0,6	2,0	0,7	0,8	3,5
Iroq	10,4	1,9	6,5	1,0	0,8	3,2
AQSH	0,3	0,8	2,7	0,2	0,7	2,8
Gruziya	1,3	0,9	3,0	0,7	0,5	2,2
Qozog'iston	8,9	3,3	11,2	1,1	0,5	2,1
Turkmaniston	6,1	1,4	4,7	0,8	0,5	2,1
Germaniya	0,1	0,4	1,2	0,1	0,4	1,6
Polsha	0,1	0,1	0,4	0,2	0,3	1,2
Saudiya Arabistoni	0,2	0,2	0,7	0,2	0,2	0,8
Latviya	0,3	0,3	1,1	0,2	0,2	0,8

*-qiymat ifodasidan



**SAMARQAND
VILOYATI
SHAHAR VA
TUMANLARIDA
AMALGA
OSHIRILGAN
EKSPORT HAJMI
(yanvar-mart,
mln. AQSh
dollari)**

Hudud nomi	2020- yil yanvar- mart	2021- yil yanvar- mart	Jamiga nisbatan ulushi, %da	o'zgarish sur'ati, %da
Samarqand viloyati	88,9	100,3	100	112,9
<i>shaharlar</i>				
Samarqand	31,5	30,4	30,3	96,4
Kattaqo'rg'on	1,8	2,7	2,67	149,6
<i>tumanlar</i>				
Bulung'ur	2,2	3,0	2,96	135,1
Jomboy	10,3	7,4	7,36	71,5
Ishtixon	1,0	0,5	0,49	48,3
Kattaqo'rg'on	1,5	5,3	5,24	3,6 m.
Narpay	1,7	4,3	4,31	2,6 m.
Nurobod	0,5	0,03	0,03	5,2
Oqdaryo	6,5	4,8	4,81	73,7
Payariq	3,6	3,1	3,08	86,7
Pastdarg'om	3,1	3,6	3,57	114,2
Paxtachi	0,5	1,4	1,41	3 m.
Samarqand	7,5	14,3	14,27	191,0
Toyloq	2,7	3,0	2,98	112,3
Urgut	12,6	15,0	14,94	119,2
Qo'shrabot	0,03	0,2	0,19	6 m.

**TO'QIMACHILIK
MAHSULOTLARI
EKSPORTI**

To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 31,8 mln. AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 31,7 %ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 7 %ga o'sdi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida paxtadan yigirilgan ip (36,2 %), gilamlar (25,2 %), va tayyor trikotaj tikuvchilik kiyimlari (22,0 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 104 turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 29 ta davlatiga eksport qilindi.

**TO'QIMACHILIK
MAHSULOTLARI
EKSPORTI
DINAMIKASI
(yanvar-mart,
mln. AQSh
dollari)**

Tovar nomi	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Gilamlar Paxtadan yigirilgan ip	0,5	4,7	11,5
Gilamlar	5,9	5,7	8,0
Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	6,4	9,2	7,0
Ipak va ipak mahsulotlari	1,5	2,4	2,4
Paxtadan gazlamalar	0,0	2,2	0,2
Boshqa to'qimachilik mahsulotlari	0,4	0,6	2,7



Mamlakatimizning to'qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish borasidagi amaliy ishlari natijasida, viloyatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.

To'qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Xitoy Xalq Respublikasi (8,4 mln. AQSh dollari – 26,4 %) Rossiya Federatsiyasi (7,1 mln. AQSh dollari – 22,2 %), va Qirg'iz Respublikasi (4,2 mln. AQSh dollari – 13,3 %) davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.


**DAVLATLAR
KESIMIDA
TO'QIMACHILIK
MAHSULOTLARI
EKSPORTI
DINAMIKASI
(yanvar-mart,
mln. AQSh
dollari)**

Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Xitoy Xalq Respublikasi	0,8	2,3	8,4
Rossiya Federatsiyasi	6,7	9,5	7,1
Qirg'iz Respublikasi	1,3	1,8	4,2
Turkiya	0,5	3,3	3,9
Ozarbayjon	1,2	1,5	2,4
Afg'oniston	0,8	0,6	1,0
Qozog'iston	0,8	1,2	0,8
Polsha	0,8	0,5	0,6
Vetnam	0,0	0,4	0,6
Italiya	0,0	0,0	0,5
BAA	0,5	0,0	0,5
Saudiya Arabistoni	0,0	0,0	0,4
Ukraina	0,1	0,1	0,3
Turkmaniston	0,0	0,1	0,3
Eron	0,6	0,2	0,2
Izroil	0,1	0,1	0,2
Maldova Respublikasi	0,0	0,0	0,1



SAMARQAND VILOYATINING IMPORTI (2021- yil yanvar-mart)

2021- yil yanvar-mart oylarida import hajmi 275,9 mln. AQSh dollarini va 2020- yilning mos davriga nisbatan 107,5 %ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, kimyoviy vositalar (31,0 %) mashinalar va transport asbob-uskunolari (29,2 %), hamda asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (16,1 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'LIMI
BO'YICHA
IMPORT
TARKIBI
(2021- yil
yanvar-mart,
ulushi, %da)

 Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar – 9,4 %	 Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar – 31,0 %
 Ichimliklar va tamaki – 0,0 %	 Sanoat tovarlari – 16,1 %
 Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari – 6,3 %	 Mashinalar va transport asbob-uskunolari – 29,2 %
 Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar – 2,7 %	 Turli xil tayyor buyumlar – 3,2 %
 Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar – 2,0 %	 Xizmatlar – 0,1 %

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2021- yilning yanvar-martida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 19,2 mln. AQSh dollariga ko'paydi va 275,6 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 0,3 mln. AQSh dollariga yetdi.

	XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
		Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR DAN IMPORT TARKIBI (2021 - yil yanvar-mart)	Jami import	275,9	89,3	186,6	100,0	100,0	100,0
	shu jumladan:						
	Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	26,0	15,5	10,5	9,4	17,3	5,6
	Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
	Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	17,3	14,1	3,2	6,3	15,8	1,7
	Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	7,5	7,3	0,2	2,7	8,2	0,1
	Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	5,5	5,4	0,1	2,0	6,0	0,1
	Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	85,5	21,4	64,0	31,0	24,0	34,3
	Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	44,4	18,0	26,4	16,1	20,2	14,2
	Mashinalar va transport asbob-uskunolari	80,4	6,2	74,3	29,2	6,9	39,8
	Turli xil tayyor buyumlar	8,9	1,2	7,7	3,2	1,4	4,1
	Xizmatlar	0,3	0,2	0,1	0,1	0,2	0,1

Importning eng katta ulushi, jumladan, kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (24,0 %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (20,2 %), Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (17,3 %) MDH mamlakatlariga to'g'ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunolari (39,8 %) va kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (34,3 %) hissasiga to'g'ri keladi.

**MDH VA
BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLARDAN
IMPORTNING
O'SISH
SUR'ATLARI
(2021- yil
yanvar-mart)**

XSST tarkibi	2020- yil yanvar-martga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	107,5	118,7	102,8
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	164,1	2,0 m.	128,2
Ichimliklar va tamaki	0,0	-	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	109,8	123,2	74,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	2,3 m.	2,4 m.	198,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va muamlar	2,6 m.	2,6 m.	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	109,8	132,2	103,9
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	77,8	57,5	102,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	105,8	2,3 m.	101,3
Turli xil tayyor buyumlar	103,7	169,7	97,7
Xizmatlar	2,4 m.	13,9 m.	95,8

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2019- yilning mos davriga nisbatan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar ulushi 16,9 %dan 31,0 %gacha o'sdi, ammo mashinalar va transport asbob-uskunalari 41,3 %dan 29,2 %ga, oziq-ovqat mahsulotlar va tirik hayvonlar, importining ulushi esa 11,5 %dan 9,4 %ga kamaydi.

**IMPORT TARKIBI
DINAMIKASI
(2021- yil
yanvar-mart,
ulushi, %da)**

XSST tarkibi	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Jami	100	100	100
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	11,5	6,2	9,4
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	6,6	6,1	6,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,8	1,3	2,7
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,7	0,8	2,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	16,9	30,3	31,0
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	18,5	22,3	16,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	41,3	29,6	29,2
Turli xil tayyor buyumlar	3,1	3,4	3,2
Xizmatlar	0,6	0,1	0,1

**XSTT BO'YICHA
IMPORT
QILINGAN
AYRIM TURDAGI
MAHSULOTLAR
TARKIBI
(2021- yil
yanvar-mart
2020- yil
yanvar-martga
nisbatan)**

Mahsulot nomi	Mln. AQSh dollari	o'zgarish sura'tlari, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	6,3	133,7
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	8,4	37,3
Tirik hayvonlar	1,9	73,7
Sabzavotlar va mevalar	4,8	27,9
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1,1	38,6
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Probka va yog'och-taxtalar	2,6	169,7
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	9,6	67,6
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	1,8	117,0
Tabiiy kauchuk	1,0	161,9
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	1,9	35,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	7,2	43,2
Ko'mir, koks va briketlar	0,3	29,1


**XSTT BO'YICHA
IMPORT
QILINGAN
AYRIM TURDAGI
MAHSULOTLAR
TARKIBI
(2021 - yil
yanvar-mart
2020- yil
yanvar-martga
nisbatan)**

Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	Mln. AQSh dollari	o'zgarish sura'tlari, % da
O'simlik yog'lari	5,4	39,0
Qayta ishlangan hayvon va o'simlik moylari va yog'lari	0,1	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	67,0	87,2
Birlamchi shakldagi plastmassalar	9,5	112,6
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	2,7	80,0
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	1,3	169,1
Organik kimyo moddalari	1,3	138,2
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	17,3	185,5
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	12,3	98,9
Rezina buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	2,8	113,8
Metallardan tayyorlangan buyumlar	3,8	82,7
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	2,8	80,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalar		
Avtomobillar	35,2	70,2
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	25,5	124,7
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	11,7	126,2
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	3,0	85,4
Metallarni qayta ishlash mashinalari	3,1	34,9
Turli xil tayyor buyumlar		
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalar uchun armatura va mahkamlash moslamalari	3,6	119,3
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	1,8	80,8
Har xil tayyor buyumlar	2,7	49,1
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar va mebel uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash mahsulotlar	0,2	4,3 m.
Poyabzal	0,5	111,8
Xizmatlar		
Transport xizmatlari	0,3	28,0

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importi hajmlarining ko'payishiga, donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar (37,3 %ga), sabzavotlar va mevalar (27,9 %ga), kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar (38,6 %ga) importining ko'payishiga ta'sir qilgan.

Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar importi ko'payishiga esa, tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari (87,2 %ga) hamda boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar (80,0 %ga) importining ko'payganligi bevosita ta'sir etgan.

MDH
VA BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLARDAN
TOVAR
VA XIZMATLAR
IMPORTI
HAJMLARI
DINAMIKASI
(yanvar-mart,
mln. AQSh
dollari,
ulushi % da)



Hisobot davri yakunlariga ko'ra, import bo'yicha hamkor davlatlar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida 17,7 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini (14,0 %) ortda qoldirgan holda, birinchi o'rinni egalladi.



	Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		O'rni	
		2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR (yanvar-mart)	Xitoy Xalq Respublikasi	57,1	48,9	89,9	85,6	1	1
	Rossiya Federatsiyai	40,3	38,7	96,1	96,0	2	2
	Qozog'iston	24,3	30,7	71,0	126,4	3	3
	Turkiya	20,4	24,9	57,1	122,4	4	4
	Yaponiya	19,7	15,9	118,0	80,6	5	5
	Ukraina	5,8	11,7	129,2	2,1 m.	6	6
	Sloveniya	8,6	9,7	154,1	112,8	13	7
	Vengrya	7,2	8,4	3,7 m.	117,7	8	8
	Hindiston	5,0	8,2	61,6	163,9	9	9
	Latviya	8,6	6,3	49,9	73,2	14	10
	Germaniya	5,9	5,4	34,2	91,1	7	11
	Eron	6,6	5,3	116,8	80,9	11	12
	Turkmaniston	2,5	5,1	121,1	2,1 m.	10	13
	Gruziya	5,9	5,0	7,3 m.	85,5	21	14
	Koreya Respublikasi	4,0	4,7	26,1	116,1	12	15
	Litva	2,8	4,3	53,0	151,5	16	16
	Bangladesh	3,8	4,2	142,7	110,6	20	17
	Polsha	4,7	4,0	2,0 m.	84,8	18	18
	AQSH	1,0	3,8	53,9	3,8 m.	15	19
	Tayland	0,8	3,0	3,5 m.	3,9 m.	28	20

2021- yil yanvar-mart oylari yakuni bo'yicha Samarqand viloyati tomonidan 65 davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

VILOYAT
IMPORTIDA
ASOSIY
HAMKOR
DAVLATLAR-
NING ULUSHI
(2021- yil
yanvar-mart,
%da)



Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya, Yaponiya, Ukraina va Sloveniya) jami importning 65,5 %ini, hajmi 180,6 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.


Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy, Rossiya va Turkiya tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.



SAMARQAND
VILOYATI
SHAHAR VA
TUMANLARIDA
AMALGA
OSHIRILGAN
IMPORT HAJMI
(yanvar-mart,
mln. AQSh
dollari)

Hudud nomi	2020- yil yanvar- mart	2021- yil yanvar- mart	Jamiga nisbatan ulushi, %da	o'sish sur'ati, %da
Samarqand viloyati	256,7	275,9	100	107,5
<i>Shaharlar</i>				
Samarqand	144,6	149,1	54,1	103,1
Kattaqo'rg'on	2,9	4,0	1,43	135,3
<i>tumanlar</i>				
Bulung'ur	3,1	1,0	0,36	32,0
Jomboy	17,7	22,1	8,00	124,5
Ishtixon	2,0	1,5	0,56	78,4
Kattaqo'rg'on	1,7	2,4	0,86	140,2
Narpay	4,3	0,9	0,32	20,5
Nurobod	6,8	10,2	3,70	149,4
Oqdaryo	4,4	4,4	1,60	100,6
Payariq	1,1	1,4	0,53	127,6
Pastdarg'om	7,0	5,1	1,83	71,9
Paxtachi	1,4	2,7	0,97	193,2
Samarqand	17,0	24,9	9,01	146,3
Toyloq	15,3	22,8	8,27	149,0
Urgut	26,1	22,5	8,14	86,1
Qo'shrabot	0,9	0,6	0,21	64,8

Jami qurilish materiallari importi 10,1 mln. AQSH dollar. Jami importdagi ulushi - 3,7 %



Qurilish materiallari importi, asosan yurtimizda olib borilayotgan bunyodkorlik, keng ko'lamdagi qurilish-rekonstruksiya ishlarini amalga oshirilishiga qaratilmoqda.

Qurilish materiallari	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Yog'och va yog'och mahsulotlari	8,9	6,3	4,6
Shisha va shisha buyumlar	0,7	1,1	0,9
Asbest	0,9	0,3	1,5
Sement	0,3	0,0	0,2

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, davlatimiz hamda viloyatimiz tomonidan qurilish mahsulotlari importi o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda ichki bozorni sifatli va arzon qurilish materiallari bilan ta'minlash bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi**
Tel.:66-230-45-23

**QURILISH
MATERIALLARI
IMPORTI
DINAMIKASI**
(yanvar-mart,
mln. AQSh
dollari)